

SHOIRDAN ZOBITGACHA: SHAVKAT RAHMON FOJIASI VA JASORATI

Boybekov Jahongir*Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti.*

+998945340575

jahongirboybekov834@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Shavkat Rahmonning «Abadiyat oralab» kitobi asosida shoir shaxsiyati, uning ruhiy olami hamda she'riyatidagi haqiqat, millat, vatan va ma'naviy uyg'oqlik masalalari tahlil qilinadi. Maqolada shoirning "shoir" va "zobit" obrazlari orqali ijodkorning jamiyat oldidagi mas'uliyati yoritiladi. Shuningdek, Shavkat Rahmon she'riyatidagi isyonkor ruh, soxtalik va maddohlikka qarshi munosabat, vatan konseptining falsafiy-estetik mohiyati ochib beriladi. Maqolada shoir ijodi milliy tafakkur, ruhiy matonat hamda haqiqatga sadoqat timsoli sifatida baholanadi. Shu bilan birga, «Abadiyat oralab» kitobi nafaqat badiiy meros, balki milliy ong va ma'naviy uyg'onish hodisasi sifatida talqin etiladi.*

Kalit so'z: *Shavkat Rahmon, Abadiyat oralab, she'riyat, shoir shaxsiyati, ruhiy isyon, haqiqat, vatan konsepti, milliy tafakkur, badiiy tafakkur, ma'naviy uyg'oqlik, poetik obraz, ijtimoiy mas'uliyat, lirika, estetik ideal, millat dardi.*

Kirish: Shavkat Rahmonning "Abadiyat oralab"⁶⁶ (keying o'rinlarda shu asar deb ketiladi. J.B), kitobini varaqlarkanman, ko'z oldimda shunchaki bir shoirning ijodiy merosi emas, balki butun bir millatning og'riqli, ammo sharaflı qismati gavdalanadi. Kitobning ilk sahifalarida Nurulloh Muhammad Raufxonning "She'riga ko'chgan shaxsiyat" sarlavhali so'zboshisi bizni bir haqiqatga tayyorlaydi, Shavkat Rahmon – so'zi bilan amali o'rtasida zarracha farq bo'lmagan, o'zligini so'ziga, so'zini o'zligiga qurbon qilgan ijodkor. Uning she'riyati – ruhning uyg'onishi, iymonning butunligi va eng asosiysi, haqiqatga tik boqish jasoratidir. Adabiyotshunos R. Mullaxo'yeva ham shoir shaxsiyatiga to'xtalib "Shavkat Rahmon ijodi har jihatdan o'zi mansub avlod vakillari she'riyatining ibratli jihatlarini aks ettiradi"⁶⁷ deya ijodkor shaxsiyatini yuqori baholaydi.

To'planning ochilish she'ri bo'lmish "Rubobiy she'r yozsam..."da shoirning chuqur bir armonli e'tirofi bor "Men jangchi emasdim, men shoir edim, nihoyat shoirdan ko'ra

⁶⁶ Abadiyat oralab: She'rlar/ Shavkat Rahmon; to'plam, nashrga tayyorlovchilar G. Rahmonova, O. Tolib; mas'ul muharrir I. Mirzo.– Toshkent: "Movarounnahr", 2012. - 384b.

⁶⁷ Ra'no Mullaxo'yeva. Poetik tafakkur yangilanishi.– Toshkent.: Muharrir, 2024.–B.5

zobitman”⁶⁸. Bu misralar Shavkat Rahmon ijodining o‘zagini tashkil etadi. Shoir tabiatan go‘zallik shaydosi, “musaffo chashmalar” va “yashil shajar” oshig‘i edi. Biroq, millatning g‘aflat uyqusi, ma‘naviy tanazzuli va “nafsigal kuyganlar”ning ko‘payib borishi uni sokinlikdan uzoqlashtirdi. U rubobiy kuylar o‘rniga jangovar ohanglarni tanlashga majbur bo‘ldi. Olim I. G‘aniyev fikrlari ham yuqoridagi fikrlarimizni qo‘llayotgandek “Shavkat Rahmon degan bir o‘jar shoir” isyonkor she‘riyati bilan noinsoniy jamiyat, shaxs erkini bo‘g‘uvchi muhit, odamlardagi evrilishlar, nosog‘lom qarash va harakatlarga qarshi ayovsiz kurashdi. U o‘z umrini insonni o‘z changalida mahkam saqlab turgan ichki va tashqi kishanlarni she‘rlari bilan uzish uchun tikdi. Uning she‘riyati shafqatsiz, murosasiz, botinan g‘oyatda mahzun, kurash va isyonga yo‘g‘rilgan she‘riyat. Mazkur she‘riyatning siyratida cheksiz bir alam, parishon el g‘ami, dardi, fojiasi; o‘z qulligidan faxrlanayotganlarga nafrat, mustabidlarga qarshi bir o‘ch yashiringan”⁶⁹ Haqiqiy shoir o‘z oromidan millat oromi uchun voz kechgan insondir.

“Bir ming bir yuz bir shoir” Shavkat Rahmon ijodida shoirlar haqidagi qarashlar o‘ziga xos o‘ringa ega. Masalan shoirning “Qarsak”⁷⁰ she‘rida shoir qarsak va maddohlarni ahmoqqa qiyoslab “Xalqimas, shuhratni o‘ylab so‘zlagan ahmoqqa bermayman qarsagimni ham”⁷¹ deydi. Uning mashhur “Bir ming bir yuz bir shoir”⁷² haqidagi achchiq mulohazalari bugungi kun uchun ham dolzarb. Shoir bu she‘r orqali shunchaki statistikani emas, balki ijod olamidagi soxtalikni, qofiyabozlikni va mas‘uliyatsizlikni tanqid ostiga oladi. Uning nazdida, haqiqiy shoir bo‘lish uchun shunchaki kitob chiqarish yoki she‘r yozish kifoya emas.

Shoir bu yerda ijodkorning jamiyat oldidagi burchini eslatadi. Agar shoirning so‘zi xalqning dardiga darmon bo‘lmasa, agar u millatni uyg‘otishga xizmat qilmasa, u minglab shoirlardan biri bo‘lib qolaveradi. Shavkat Rahmon uchun shoirlik — bu unvon emas, bu — og‘ir kishan, bu — o‘zini fido qilish deganidir. Uning “shafqatsiz” she‘riyati ana shu minglab “shakkar” sochuvchi shoirlar orasida haqiqatning achchiq, ammo shifobaxsh sadosi bo‘lib yangradi.

Vatan - Yurakning tubidagi manzil “Rangin lahzalar” bo‘limidagi “Vatan” to‘rtligi shoirning bu muqaddas tushunchaga bo‘lgan munosabatini to‘la ifodalaydi. Vatan u uchun balandparvoz hayqiriqlar, minbarlardagi nutqlar emas. U — “yurak o‘z tubiga yashirgan” sir. Shavkat Rahmonning butun umri ana shu ichki Vatanga yetib borish, uning ozodligi va

⁶⁸ Shu asar bet-2

⁶⁹ Ilhom G‘aniyev, Nodira Afoqova, Afifa G‘aniyeva. Shavkat Rahmon olami.– Toshkent.: Akademnashr, 2012. – bet-3

⁷⁰ Shu asar bet-218

⁷¹ Shu asar bet-218

⁷² Shu asar bet-307

pokligini saqlash bilan o‘tdi. U “Abadiyat oralab” yo‘lga chiqarkan, o‘zining jismoniy vatanidan ko‘ra ruhining vataniga intildi.

Shavkat Rahmon shaxsi haqida gapirganda, barcha zamondoshlari uning kamtarligi, bosiqligi va muloyimligini eslashadi. Ammo bu bosiqlik ortida vulqonday qaynab turgan bir isyon bor edi. Bu — g‘aflatga, soxtalikka, milliy befarqlikka qarshi isyon. Uning she‘rlaridagi “ko‘zingizni oching, mayli ziyodan qamashsin” degan da‘vati — ijtimoiy uyg‘oqlik darsidir. U o‘quvchini qiyinchilikdan, haqiqatning og‘rig‘idan qo‘rqmaslikka o‘rgatadi. Haqiqiy shoir o‘z millatini ayovsiz haqiqatlar orqali davolaydi.

Kitob nomi bejiz “Abadiyat oralab” deb qo‘yilmagan. Bu — Shavkat Rahmonning o‘lim oldidagi so‘nggi nolasi “Abadiyat oralab O‘shga qachon yetamiz?”. Bu yerda O‘sh — shunchaki geografik nuqta emas, bu — shoirning bolaligi, pokligi, ildizlari va so‘nggi orom manzili. Shoir abadiyatga ketayotib ham o‘z yo‘lidan to‘xtagani yo‘q. U o‘z misralari bilan mangu yashash huquqini qo‘lga kiritdi.

Xulosa qilib aytganda Shavkat Rahmon bizga shoirlik bu — sharaflı azob ekanini ko‘rsatib ketdi. U “bir ming bir yuz bir shoir” orasidan ajralib chiqib, millatning chinakam ovozigā aylandi. Uning ijodi — bugungi kun yoshlari, ayniqsa, bo‘lajak ijodkorlar uchun haqiqiy darslikdir. Shoir bo‘lish uchun avvalo SHAXS bo‘lish kerakligini u o‘z hayoti va o‘limi bilan isbotladi. Uning “Abadiyat oralab” kitobi orqali shoirning nafaqat poetik mahorati, balki shaxsiyati, e‘tiqodi va millat taqdiri oldidagi mas‘uliyat hissi ham namoyon bo‘ladi. Shavkat Rahmon she‘riyatida so‘z oddiy estetik vosita emas, balki ruhiy kurash va haqiqatni anglatish quroliga aylanadi. Uning “tirik satrlari” abadiyat oralab biz bilan birga yashashda davom etadi. Demak, “Abadiyat oralab” kitobi shunchaki she‘rlar to‘plami emas, balki inson ruhiyati, milliy tafakkur va haqiqatga sadoqatning badiiy ifodasidir. Shavkat Rahmon esa o‘z so‘zi va shaxsiyati uyg‘unlashgan ijodkor sifatida o‘zbek adabiy tafakkurida abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abadiyat oralab: She‘rlar/ Shavkat Rahmon; to‘plam, nashrga tayyorlovchilar G. Rahmonova, O. Tolib; mas‘ul muharrir I. Mirzo.— Toshkent: "Movarounnahr", 2012. - 384b.
2. Ilhom G‘aniyev, Nodira Afoqova, Afifa G‘aniyeva. Shavkat Rahmon olami.— Toshkent.: Akademnashr, 2012. – B.135
3. Ra‘no Mullaxo‘jayeva. Poetik tafakkur yangilanishi.— Toshkent.: Muharrir, 2024.— B.153
4. https://t.me/jilovlanmagan_tafakkur (Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev telegram blogi)